

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14883479>

## BOSHLANG‘ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

**Abdullayeva Zuhra**

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat Pedagogika Universiteti Boshlang‘ich ta’lim fakulteti va Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 201-guruh talabasi

**M.A.Hamrayev**

Ilmiy rahbar: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat Pedagogika Universiteti Boshlang‘ich ta’lim fakulteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Email: [m.a.hamrayev@gmail.com](mailto:m.a.hamrayev@gmail.com)

*Annotatsiya: Ushbu maqola boshlang‘ich ta’limda va boshlang‘ich sinf ona tili darslarida raqamli texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati haqida.*

*Kalit so‘zlar: raqamli texnologiya, Ta’lim, Dars, Texnologiya, Dars jarayoni, O‘quvchi, Elektron darsliklar.*

*Аннотация: В данной статье речь идет о важности использования цифровых технологий в начальном образовании и на уроках родного языка.*

*Ключевые слова: цифровые технологии, Образование, Урок, Технологии, Процесс обучения, Студент, Электронные учебники.*

*Abstract: This article discusses the importance of using digital technologies in primary education and in primary native language lessons.*

*Keywords: digital technologies, education, lesson, technologies, learning process, student, electronic textbooks.*

Bugungi kunda ta'lim sohasiga katta etibor qaratilmoqda. Butun dunyo bo'ylab ta'lim sohasida keng qamrovli islohotlar olib borilmoqda. Chunki, talim dunyoni qutqaruvchi quroldir.

Ta'lim sohasiga hozirgi zamon talablariga ko'ra yondashish ko'zda tutilgan, yani raqamlashtirish. Raqamli texnologiyalarni olib kirish asosiy maqsad hisoblanadi.

Bu sekin-asta zamonaviy ta'lim tizimga kiritilyapti.

Raqamli texnologiya haqida qisqacha to'xtalib o'tsak.

Raqamli texnologiya 90-yillardan boshlab axborot kommunikatsion vositalariga asoslangan O'qitish texnologiyalarini ishlab chiqish tajribasi orqali yuzaga kelgan.

Raqamli texnologiyada asosiy e'tibor o'qitish mazmunini yangilash, qulay vositalardan foydalanish va o'zlashtirish metodikasini takomillashtirishga qaratilgan. Bunda raqamli tushunchasini o'quv materiallarini kompyuterli dastur asosida tayyorlash va uzatish nazarda tutilgan sababli, ta'lim tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish masalasiga e'tibor berilmoqda.

Raqamli texnologiyalarni ta'limning Boshlang'ich ta'lim bo'limida ham qo'llash hozirgi vaqtda muhim hisoblanadi. Bunga hozirda ko'pchilik o'tgan.

Boshlang'ich ta'limda hozirda barcha darslarda bu texnologiyadan foydalanilyapti.

**Masalan Ona tili darslarida.** Boshlang'ich sinf ona tili darslarida raqamli texnologiyalardan foydalanish eng samarali usul hisoblanmoqda. O'quvchi ma'lum bir sabablarga ko'ra darsga kelmadi. U kuni ustozini Ot so'z turkumini o'tdi. O'quvchi uyda o'tirgan holda shu mavzu yuzasidan tayyorlagan qisqa videolavhasini ko'rishi mumkin. O'quvchi darsda bo'lmagan bo'lsa ham mavzuni ma'lum bir qismini o'rgandi. Keyinchalik ustozidan mustaqil tarzda qayta o'rganishi mumkin.

Yana raqamli texnologiyadan foydalanish dars jarayonini yanada samarali, interaktiv va qiziqarli qilishga yordam beradi.

O'qituvchi mavzuni tushuntirishda mavzu yuzasidan tayyorlagan taqdimotlar, rasmlar, videolar, audio yozuvlar va o'yinli dasturlardan foydalanish orqali o'quvchilarni darsga yanada qiziqtirishi, darsda faol bo'lmaydigan o'quvchi ham dars jarayoniga kirishib ketishish imkonini beradi.

Yana mustaqil o'rganish va takrorlash imkonini yaratadi, yani mobil ilovalar va onlayn platformalar orqali o'quvchilar mustaqil ravishda dars materiallarini o'rganishlari, mashq bajarishlari va natijalarni tekshirishlari mumkin.

Raqamli texnologiyalar asosida mavzu yuzasidan o'quvchilar hikoya tuzishlari, matn tahrirlashlari, ovoz yozish kabi amaliy mashg'ulotlarga xizmat qilish bilan birga, Ko'rish va eshitish orqali o'rganish imkonini beradi. Masalan berilgan hikoyalarni animatsiyalar orqali ko'rish yoki she'rlarni audio shaklida tinglash dars materialini tezroq o'zlashtirishga yordam beradi.

Bu texnologiyadan o'qituvchilar ham unumli foydalanmoqdalar. Bu O'qituvchilarga darsni samarali tashkil qilishda, o'zlashtirish past bo'lgan o'quvchilar bilan individual ishlashda, darsni qiziqarli o'tishda va o'quvchilarni faolligini kuzatishda katta foyda bo'lmoqda.

O'quvchilarning maxsus darslar orqali so'z va gap tuzish bo'yicha mashqlar bajarish diktantlar yozish avtomatik tuzatish funksiyalardan foydalanish O'quvchilarning yozuv madaniyatini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Boshlang'ich sinf ona tili darslarida raqamli texnologiyalardan foydalanish ta'lim sifatini oshirish bilan birga O'quvchilarning mustaqil fikrlashi kreativligi va texnologik savodxonligini ham rivojlantirmoqda. Bu O'quvchilarning kelajakdagi ta'lim jarayonida muvaffaqiyat qozonishlariga imkon beradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Babashev.F.A "Ozbekiston Respublikasida Oliy Talimni Isloh qilishning Ustuvor yonalishlari"
2. Jabbarova O.M Boshlangich innavatsion texnologiyalar. Darslik 2023
3. Hamrayev Alilon. Raqamli texnologiyalarni talim jarayoniga tatdbiq etish Zamonaviy talim konsepsiyasi asosi.